

IOANN SHILTBERGER ASARIDA QABR VA ZIYORAT MADANIYATI: XV ASR MUSULMON JAMIYATLARINING DINIY- ETNOGRAFIK HAYOTI

Kabulov Rustam Jumaniyozovich

Oriental Universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

Rustamkabulov759@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-0108-0887>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XV asr boshlarida yashagan nemis sayyohi Ioann Shiltbergerning “Yevropa, Osiyo va Afrika bo‘ylab sayohat (1394–1427)” asari asosida musulmon xalqlarining qabr va ziyorat madaniyati tahlil qilinadi. Muallifning Markaziy Osiyo, Kavkaz, Eron va Yaqin Sharq hududlaridagi kuzatuvlari orqali dafn marosimlari, marhumlarni yuvish odati, qabrlarning joylashuvi, marhumlar ruhiga duo qilish an‘analari hamda diniy muassasalar faoliyati o‘rganiladi. Shiltbergerning ma‘lumotlari boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinib, o‘rta asr musulmon jamiyatlarida ziyorat madaniyatining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari Shiltbergerning sayohatnomasi diniy-etnografik tarixni o‘rganishda muhim manbalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Ioann Shiltberger, qabr madaniyati, ziyorat, dafn marosimi, musulmon jamiyati, Markaziy Osiyo, diniy-etnografik tarix, XV asr.*

KIRISH

O‘rta asrlar tarixi va madaniyatini tadqiq etishda sayohatnomalar muhim tarixiy manbalar qatoriga kiradi. Ayniqsa, Yevropa sayyohlari tomonidan yozilgan asarlar Sharq xalqlarining diniy hayoti, urf-odatları va madaniy an‘analarini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday manbalar orasida XV asr boshlarida yashagan nemis sayyohi Ioann Shiltbergerning “Yevropa, Osiyo va Afrika bo‘ylab sayohat (1394–1427)” nomli asari alohida o‘rin egallaydi. Muallif uzoq yillar davomida Usmonli turklar, Amir Temur va uning vorislari hukmronligi ostidagi hududlarda yashaganligi sababli musulmon xalqlarining kundalik turmushi va diniy marosimlarini bevosita kuzatish imkoniga ega bo‘lgan.

XIV–XV asrlar musulmon jamiyatlarida qabr va ziyorat madaniyati diniy hayotning ajralmas qismi hisoblangan. Islom ta‘limotida marhumlarni hurmat qilish, ularning ruhiga Qur‘on tilovat qilish, qabristonlarni ziyorat etish va xotira

marosimlarini o‘tkazish muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda tasavvuf ta’limotining rivojlanishi bilan mashhur avliyolar maqbaralari muqaddas maskanlar sifatida shakllangan.

Bugungi kunda O‘rta Osiyodagi Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi mutasavviflarning maqbaralari nafaqat diniy, balki tarixiy va madaniy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega. Biroq bunday ziyorat madaniyatining dastlabki shakllari va ularning jamiyatdagi o‘rnini aniqlashda zamondosh kuzatuvchilarning ma’lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ioann Shiltberger o‘z asarida ziyoratgohlar yoki avliyolar maqbaralari haqida keng ma’lumot bermagan bo‘lsa-da, musulmonlarning marhumlarga bo‘lgan munosabati, dafn marosimlari va qabrlarning joylashuvi haqidagi kuzatuvlari orqali qabr madaniyatining ayrim jihatlarini yoritib bergan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, qabr va ziyorat madaniyati O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy merosida muhim o‘rin tutadi. Mazkur mavzuni xorijiy sayyohlarning guvohliklari asosida o‘rganish mintaqa diniy-etnografik tarixining ayrim kam tadqiq qilingan jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqotda asosiy manba sifatida Ioann Shiltbergerning “Yevropa, Osiyo va Afrika bo‘ylab sayohat (1394–1427)” asarining rus tilidagi nashridan foydalanildi. Ushbu asarda muallifning Turkiya, Eron, Kavkaz va Markaziy Osiyo hududlarida olib borgan kuzatuvlari aks etgan.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-qiyosiy metod. Shiltberger ma’lumotlari boshqa o‘rta asr manbalari bilan qiyoslandi. Xususan, Ibn Battuta, Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy va Abdurazzoq Samarqandiy asarlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirish orqali ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi aniqlandi.

Tahliliy metod. Sayyohning kuzatuvlari alohida qismlarga ajratilib, dafn marosimlari, qabrlarning joylashuvi, marhumlar uchun duo qilish odatlari va diniy muassasalar faoliyati bo‘yicha tizimlashtirildi.

Tarixiy-etnografik metod. Musulmon xalqlarining diniy marosimlari va qabr madaniyatiga oid ma’lumotlar etnografik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Bu metod marhumlarni yuvish, janoza marosimlari va qabriston madaniyatining ijtimoiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Tizimlashtirish metodi. Olingan ma’lumotlar ma’lum guruhlariga ajratilib, qabr madaniyati bilan bog‘liq elementlar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Manbashunoslik metodi. Ioann Shiltbergerning shaxsiy kuzatuvlari va ma’lumotlarining tarixiy manba sifatidagi qiymati baholandi. Muallif professional

tarixchi bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning uzoq muddat musulmon xalqlari orasida yashagani kuzatuvlarning tarixiy ahamiyatini oshiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musulmonlarning dafn marosimlari haqidagi ma'lumotlar. Ioann Shiltbergerning sayohatnomasida musulmon xalqlarining diniy hayoti bilan bog‘liq qimmatli etnografik ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, marhumlarni dafn qilish marosimlari va ularga nisbatan hurmat masalalari muallif e‘tiborini tortgan. U musulmonlar orasida o‘lim bilan bog‘liq marosimlar qat‘iy diniy qoidalar asosida amalga oshirilishini ta’kidlaydi. Muallifning yozishicha, marhumlar masjidlar ichiga yoki ularning yaqin atrofiga dafn qilinmagan, balki ochiq maydonlarda hamda yo‘l bo‘ylarida joylashgan qabristonlarga ko‘milgan.

Shiltberger keltirgan:

“Умерших у них ни в храмах, ни близ них не погребают, а хоронят их в чистом поле и возле дорог, чтобы проходящие мимо могли за них молиться”[1.45] degan ma'lumot musulmon jamiyatlarida marhumlarning ruhiga duo qilish an‘anasi keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Islom dini ta’limotiga ko‘ra, marhumlarning haqqiga qilingan duo va Qur‘on tilovati savob amallardan hisoblangan. Shu sababli qabristonlarning odamlar ko‘p qatnaydigan hududlarga yaqin joylashishi tasodifiy holat emas, balki diniy qarashlar bilan bog‘liq hodisa bo‘lgan.

Bu ma'lumotlar o‘rta asr musulmon jamiyatlarida o‘lim va oxirat haqidagi tasavvurlar kuchli bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Inson vafotidan keyin ham uning ruhi uchun ezgu amallar qilish, xotirasini saqlash va doimiy ravishda duo qilib turish jamiyatning muhim ma’naviy qadriyatlaridan biri hisoblangan.

Marhumlarni yuvish va janoza marosimlari. Shiltberger musulmonlar orasida marhumni dafn qilishdan oldin uni yuvish odati mavjudligini ham qayd etadi[1.67]. Unga ko‘ra, o‘lik dafn etilishidan avval maxsus marosimlar asosida yuvilgan va shundan so‘ng janoza marosimi bajarilgan.

Mazkur ma'lumot islom huquqida muhim o‘rin egallovchi g‘usl al-mayyit marosimining XV asr boshlarida ham amalda bo‘lganligini tasdiqlaydi. Islom ta’limotida marhumni yuvish farzi kifoya hisoblanadi va bu marosim marhumga ko‘rsatiladigan eng muhim hurmat belgilaridan biri sanaladi.

Shiltbergerning qaydlari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr musulmon jamiyatlarida diniy marosimlar qat‘iy tartibga ega bo‘lib, ular shariat qoidalari asosida bajarilgan. Bunday marosimlar nafaqat diniy ahamiyatga, balki ijtimoiy birlikni ta’minlovchi omil sifatida ham xizmat qilgan.

Marhumni dafn etish marosimlarida qarindoshlar, qo‘shnilar va mahalla ahli ishtirok etgan. Bu esa musulmon jamiyatlarida jamoaviy birdamlik va o‘zaro hamjihatlikning yuqori darajada bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Qabrlarning joylashuvi va ziyorat madaniyatining shakllanishi. Ioann Shiltbergerning qabrlar haqidagi ma‘lumotlari o‘rta asr musulmon jamiyatlarida ziyorat madaniyatining mavjud bo‘lganini ko‘rsatadigan muhim dalillardan biridir. Muallif qabrlarning yo‘l bo‘ylariga qurilishi sababini yo‘lovchilarning marhumlar uchun duo qilishlari bilan izohlaydi.

Bu holat qabrlarning faqat dafn joyi sifatida emas, balki muqaddas xotira maskani sifatida ham qabul qilinganini anglatadi. Keyinchalik Markaziy Osiyoda shakllangan ziyorat an‘analari aynan ana shunday diniy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi.

Xususan, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi, Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasi, Xorazmdagi Najmiddin Kubro maqbarasi hamda Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi musulmonlar orasida muqaddas ziyorat maskanlari sifatida shakllandi. Ushbu ziyoratgohlar nafaqat diniy markaz, balki ilm-fan va ma‘naviyat maskani sifatida ham faoliyat yuritgan.

Shiltberger davrida bunday an‘analar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, uning kuzatuvlari qabrlarni ulug‘lash va marhumlar xotirasini e‘zozlash an‘analari XV asr boshlaridayoq musulmon jamiyatlari hayotida muhim o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi

Masjidlar, madrasalar va imoratlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar. Shiltberger musulmonlarning diniy muassasalari haqida ham qimmatli ma‘lumotlar qoldirgan. U diniy binolarni uch toifaga ajratadi: masjidlar, madrasalar va imoratlar [1.63].

Muallifning yozishicha, masjidlar ibodat qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, madrasalar diniy va dunyoviy ilmlar o‘qitiladigan ta‘lim maskanlari hisoblangan. Imoratlar esa xayriya muassasalari bo‘lib, ularda faqirlar, talabalar va musofirlarga bepul oziq-ovqat tarqatilgan.

Bu ma‘lumotlar XV asr musulmon shaharlari rivojlangan diniy va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, imoratlarning mavjudligi islom jamiyatlarida saxovat va xayriya tamoyillari muhim o‘rin tutganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda Temuriylar davrida bunyod etilgan ko‘plab madrasa va xonaqohlar ham xuddi shunday vazifalarni bajargan. Samarqand, Hirot va Buxoro shaharlari ilm-fan markazlariga aylangan bo‘lib, ulardagi diniy muassasalar jamiyatning ma‘naviy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan.

Shiltberger ma'lumotlarining tarixiy ahamiyati. Ioann Shiltberger professional tarixchi bo'lmaganiga qaramay, uning kuzatuvlari XV asr boshlaridagi musulmon dunyosining diniy hayoti haqida muhim ma'lumotlar beradi.

Uning asarida:

- dafn marosimlari;
- marhumlarni yuvish odati;
- qabrlarning joylashuvi;
- marhumlar uchun duo qilish an'analari;
- masjid va madrasalarning faoliyati;

haqida uchraydigan ma'lumotlar musulmon jamiyatlarining diniy-etnografik hayotini o'rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, Shiltberger ma'lumotlari boshqa sayyohlar va tarixchilar, jumladan Ibn Battuta, Ibn Arabshoh va Abdurazzoq Samarqandiy asarlaridagi ma'lumotlarni to'ldiradi. Shu sababli uning sayohatnomasi Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining diniy tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri sifatida baholanadi.

Umuman olganda, Shiltbergerning kuzatuvlari XV asr musulmon jamiyatlarida qabr va ziyorat madaniyatining shakllanish bosqichlarini o'rganish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar keyingi asrlarda Markaziy Osiyoda rivojlangan ziyorat an'alarining tarixiy ildizlarini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

XULOSA

Ioann Shiltbergerning “Yevropa, Osiyo va Afrika bo‘ylab sayohat (1394–1427)” asari XV asr boshlaridagi musulmon jamiyatlarining diniy-etnografik hayotini o'rganishda muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Muallif professional tarixchi bo'lmagan bo'lsa-da, uning uzoq yillar davomida Turkiya, Kavkaz, Eron va Markaziy Osiyo hududlarida yashab, mahalliy xalqlarning kundalik turmushi hamda diniy marosimlarini bevosita kuzatgani asarning tarixiy qimmatini yanada oshiradi.

Tadqiqot natijalari Shiltberger asarida qabr va ziyorat madaniyati bilan bog'liq ayrim muhim ma'lumotlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, musulmonlarning marhumlarga bo'lgan hurmati, ularni maxsus diniy marosimlar asosida dafn etishlari, marhumni yuvish odati, qabrlarning yo'l bo'ylariga joylashtirilishi hamda marhumlar ruhiga duo qilish an'analari haqida berilgan ma'lumotlar o'rta asr musulmon jamiyatlarining diniy dunyoqarashini aks ettiradi.

Shiltbergerning qabrlar joylashuvi haqidagi ma'lumotlari qabrlarning faqatgina dafn joyi emas, balki diniy xotira maskani sifatida ham qabul qilinganligini

ko'rsatadi. Bu esa keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan ziyorat madaniyatining tarixiy ildizlari ancha qadimiy ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi mashhur mutasavviflar maqbaralari atrofida shakllangan ziyorat an'analari ana shu diniy qarashlarning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Shiltbergerning masjidlar, madrasalar va imoratlar haqidagi ma'lumotlari XV asr musulmon shaharlarida rivojlangan diniy va ijtimoiy infratuzilmaning mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa islom jamiyatlarida diniy hayot bilan bir qatorda ta'lim va xayriya tizimi ham muhim o'rin tutganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida Shiltberger ma'lumotlarining boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlili ularning katta qismi ishonchli kuzatuvlarga asoslanganligini ko'rsatdi. Shu sababli uning sayohatnomasi Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yaqin Sharq xalqlarining diniy-etnografik tarixini o'rganishda muhim qo'shimcha manba sifatida baholanishi mumkin.

Umuman olganda, Ioann Shiltbergerning kuzatuvlari XV asr musulmon jamiyatlarida qabr va ziyorat madaniyatining shakllanishi, rivojlanishi va jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu ma'lumotlar o'rta asrlar diniy madaniyati va ziyorat an'alarining tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шилтбергер И. Путешествие по Европе, Азии и Африке с 1394 года по 1427 год. Баку: ЭЛЬМ, 1984.
2. Ibn Battuta. *Sayohatnoma*. Toshkent: Sharq, 1993.
3. Ibn Arabshoh. *Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur*. Toshkent: Mehnat, 1992.
4. Abdurazzoq Samarqandiy. *Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn*. Tehron, 1975.
5. Bartold V.V. *Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida*. Toshkent: Fan, 1990.
6. Axmedov B.A. *Tarixdan saboqlar*. Toshkent: O'qituvchi, 1994.
7. Karimov U. *O'zbekiston ziyoratgohlari tarixi*. Toshkent: Akademnashr, 2018.
8. Rajabov Q. *Markaziy Osiyoda tasavvuf va ziyorat an'analari*. Toshkent: Fan, 2015.
9. *Islom ensiklopediyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
10. Nizomiddin Shomiy. *Zafarnoma*. Toshkent: O'zbekiston, 1996.